

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK: 338:330.3(575.1)

FAYZIEV JASUR XAYRULLA O'G'LI

**IQTISODIY TARAQQIYOT JARAYONIDA SANOAT
TARMOQLARINI MODERNIZATSIYALASHNING INVISTITION
ASOSLARI**

**5A230102– Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
mutaxassisligi bo'yicha**

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar:
i.f.d. professor: SH.R.XOLMO'MINOV**

TOSHKENT – 2023

Magistrlik dissertatsiya ishi "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrası dastlabki himoyadan o'tgan 39-sonli bayonnoma «28» 04 2023 y.

Ilmiy rahbar: i.f.d. professor: Sh.Xolmo'minov

Magistr: J.Fayziev




Dissertatsiya ishi Iqtisodiyot fakultetida 2023 yil "22" 05

№2/15 raqami bilan ro'yxatga olingan

"Himoyaga ruxsat etiladi"

"Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrası

mudiri dots. I.Xotamov



"3" "05" 2023 yil

Himoya Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universitetida

2023 yil "22" 05 soat "10⁰⁰" da bo'ladi.

Ushbu magistrlik dissertasiyasining yangiligi shundaki, investitsiyalarni jalb qilish va boshqarish usullarining iqtisodiy mazmun- mohiyati, me'yoriy-huquqiy asoslari, boshqarishning xorij tajribasi, davlatning o'rni yoritildi, boshqarish usullaridagi muammolar ochib berildi.

Investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarish usullarini takomillashtirish yuzasidan amaliy asoslangan taklif-tavsiyalar ishlab chiqildi. Iqtisodiy taraqqiyotga erishishning yangi sifat bosqichiga o'tish yuzasidan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiyalash bo'yicha belgilangan ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirilib borishi natijasida xalqaro moliya bozorining to'laqonli ishtirokchisiga aylantirish mumkin bo'ladi.

Dissertatsiyada investitsiyalarni jalb qilish va boshqarish usullariga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan mamlakatimizda investitsion faoliyatni takomillashtirishda hamda uning yangi imkoniyatlarini izlab topishda keng foydalanish ushun zamin yaratadi.

The novelty of this master's thesis is that the economic content, regulatory and legal bases of investment attraction and management methods, foreign experience of management, the role of the state, problems in management methods were revealed;

Practically based proposals will be developed regarding the improvement of methods of attracting investments and their management. It will be possible to become a full-fledged participant of the international financial market as a result of the implementation of the priority directions for deepening and modernization of economic reforms in order to move to a new qualitative stage of economic development.

The scientific proposals and practical recommendations aimed at the methods of investment attraction and management in the thesis will be widely used in the improvement of investment activities in our country and in the search for its new opportunities.

Annotatsiya

Mazkur dissertatsiyada tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy va amaliy natijalar xosil qilindi: sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalashning investitsion asoslari bo'yicha ilmiy yondashuvlarni o'rganib chiqildi, sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalashni investitsion asoslari bo'yicha xorijiy tajribalar tahlil qilindi, sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalashga investitsiyalarni ta'sirini tahlil qilindi, sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalashga yo'naltirilgan investitsiyalarni prognozini aniqlandi, sanoat tarmoqlarida modernizatsiyalashni investitsiyalashtirishni oshirish bo'yicha xulosa va takliflar taqdim etildi, tadqiqot nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqildi, sanoat korxonalarida investitsion faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlandi.

Kalit so'zi: bozor iqtisodiyoti, investitsiya jalb qilish, investor, investitsiya faoliyati, ichki moliyalashtirish, tashqi moliyalashtirish, investitsion loyihalarni, "yashil" iqtisodiyot, investitsiyalar, chet el investitsiyalari, moliyaviy aktivlar, risklar, ichki investitsiya, moliyalashtirish.

Annotation

The following scientific and practical results were obtained in this dissertation: scientific approaches to the investment foundations of industrial modernization were studied, foreign experiences on the investment foundations of industrial modernization were analyzed, the impact of investments on industrial modernization was analyzed, the forecast of investments aimed at industrial modernization was determined, conclusions and suggestions on increasing investment in modernization were presented, the theoretical and methodological foundations of the research were developed, the main directions for improving the financing of investment activities in industrial enterprises were determined.

Keywords: market economy, investment attraction, investor, investment activities, internal financing, external financing, investment projects, green" economy, investments, foreign investments, financial assets, risks, domestic investment, financing.

Mundarija

| | | |
|-----------------|---|-----------|
| | Annotasiya | 4 |
| | Mundarija | 6 |
| | Keltirilgan jadvallar ro'yxati | 7 |
| | Keltirilgan rasmlar ro'yxati | 8 |
| I bob. | KIRISH | 9 |
| 1.1. | Disertasiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi..... | 10 |
| 1.2. | Tadqiqot maqsadi va vazifalari..... | 15 |
| 1.3. | Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari..... | 15 |
| 1.4. | Tadqiqot ishining ob'yekti va predmeti..... | 15 |
| 1.5. | Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati..... | 15 |
| 1.6. | Dissertasiya tarkibining qisqacha tavsifi..... | 16 |
| II bob. | Adabiyotlar sharhi va tahlili | 17 |
| 2.1. | Sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalashning investitsion asoslari bo'yicha ilmiy yondashuvlar asoslari..... | 17 |
| 2.2. | Sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalashni investitsion asoslari bo'yicha xorijiy tajribalar tahlili..... | 29 |
| III bob. | Tadqiqot metodologiyasi | 37 |
| 3.1. | Tadqiqot nazariy va metodologik asoslari..... | 37 |
| 3.2. | Ma'lumotlarni to'plash jarayoni..... | 38 |
| 3.3. | Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar..... | 38 |
| IV bob. | Iqtisodiy taraqqiyot jarayonida sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalashga investitsiyalar ta'sirini tahlili va prognozi | 39 |
| 4.1. | Sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalashga investitsiyalarni ta'sirini tahlili... | 39 |
| 4.2. | Sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalashga yo'naltirilgan investitsiyalarni prognozi..... | 49 |
| V bob. | Xulosa va takliflar | 55 |
| 5.1. | Sanoat tarmoqlarida modernizatsiyalashni investitsiyalashtirishni oshirish bo'yicha xulosa va takliflar..... | 56 |
| 5.2. | Ilmiy yangiligi va fan qo'shilgan hissasi | 56 |
| 5.3. | Tadqiqot natijalarning amaliyotga ahamiyati..... | 56 |
| | Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati | 60 |
| | Ilovalar | |

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti munosabatlarini takomillashtirish davlat tomonidan olib boriladigan ichki moliya siyosati bilan o'zaro bog'liq jarayon hisoblanadi. Moliyaviy resurslarni taqsimlash, qayta taqsimlash hamda u yoki bu soha uchun sarflash yoki jamg'arish respublikamizda qabul qilingan va faoliyat ko'rsatib kelayotgan taqsimot tizimi bilan uzviy aloqador. Qonunchilikni rivojlanishi, adolatli va haqiqatparvar qonunlar qabul qilinishi hamda ularning hayotga tatbiq etish orqali bozor iqtisodiyotini yuksaltirishga, tadbirkorlikni keng ko'lamda tarqalishiga qaratilsa, investitsiya manbalari tarkibida davlat mablag'larining kamayishi hisobiga boshqa mulkdorlarning mablag'lari tez sur'atlarda o'sib borishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasiga investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarisha eng yetakchi hamda muhim vazifani O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi bajaradi. Unga ko'ra mamlakatimizdagi deyarli barcha investitsiyalarning jalb qilinishi, joriy qilinishi, boshqarilishi hamda keyingi yillar uchun istiqbolli loyihalarning ko'rsatilishi ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi bu O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan mamlakat iqtisodiyotini barqaror va izchil rivojlantirishga erishishga, mavjud tabiiy, mineral xom-ashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo'li bilan mamlakatning ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tuzilmaviy qayta tashkil etish bo'yicha asosiy ustuvor yo'nalishlar hamda strategik vazifalarni ro'yobga chiqarishga qaratilgan, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini o'z ichiga olgan, o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan choralar tadbirlar majmuidir.